

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11515967>

O‘ZBEKISTONDA YERDAN FOYDALANISH VA YER KADASTRINI YURITISH ISHLARI

Yarkulov Zokir Raxmanovich

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti
katta o‘qituvchisi, Samarqand, O‘zbekiston

Ortiqov Javlon Ulugmurod o‘g‘li

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti
o‘qituvchisi, Samarqand, O‘zbekiston

Annotatsiya: *Ilmiy maqolaning maqsadi Davlat kadastrlari yagona tizimining tarkibiy qismlaridan biri hisoblangan davlat yer kadastrini mavjud yer fondining tabiiy va xo‘jalik holati, huquqiy rejimi, qaysi toifaga mansubligi, miqdor va sifat holati, qiymati, joylashgan o‘rni, o‘lchamlari, yer egalari va undan foydalanuvchilar o‘rtasida taqsimlanishi haqidagi zaruriy hujjatlar tizimidan iboratdir. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi yer maydonlaridan samarali va oqilona foydalanish, ularni miqdor va sifat jihatdan tahlil qilish, yerlar hisobini yuritish va yer munosabatlarining turli darajalarida boshqaruv muammolarini hal qilish, yer monitoringiga oid maqsadli tadqiqotlar olib borilgan.*

Kalit so‘zlar: *Yer uchastkasi, geoaxborot tizimlari, chegara, xududni aniqlash, kadastr kartasi, kadastr xatosi, reestr xatosi, kadastr hisobi.*

Abstract: *The purpose of the scientific article is the state land cadastre, which is one of the components of the unified system of state cadastres, the natural and economic condition of the existing land fund, legal regime, which category it belongs to, quantity and quality, value, location, dimensions, land owners and consists of a system of necessary documents about its distribution among users. Effective and rational use of agricultural land areas, their quantitative and qualitative analysis, land accounting, solving management problems at different levels of land relations, and land monitoring have been conducted in Uzbekistan.*

Keywords: *land plots, geoinformation system, agricultural purposes, borders, land surveying, cadastral registration.*

Davlat kadastrlari yagona tizimining tarkibiy qismlaridan biri hisoblangan davlat yer kadastr mavjud yer fondining tabiiy va xo‘jalik holati, huquqiy rejimi, qaysi toifaga mansubligi, miqdor va sifat holati, qiymati, joylashgan o‘rni, o‘lchamlari, yer egalari va undan foydalanuvchilar o‘rtasida taqsimlanishi haqidagi zaruriy hujjatlar tizimidan iboratdir.

Ma‘lumki, yerdan foydalanish avvalo kishilik jamiyati paydo bo‘lgan davrdan boshlangan bo‘lib, hozirgi kunga qadar rivojlanib kelmoqda. Shuning uchun ham yer kadastr ishlarini yuritishda yer hisobini olib borish muhim ahamiyatga ega bo‘lgan masalalardan biri hisoblanadi.

Tabiiy resurslarning inson faoliyatiga ta‘siri tobora kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda ulardan oqilona foydalanish va himoya qilish muammosi yuzaga kelmoqda, bu esa o‘z navbatida ulardan foydalanishda ishonchli, tezkor va ilmiy asoslangan ma‘lumotlarga tayangan holda huquqiy, tabiiy va iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Ushbu masalalarni bir tizimga solish maqsadida hozirgi kunda davlat kadastrini yaratish va yuritish ustida bir qancha ijobiy ishlar olib borilmoqda.

Kadastrning shakllanish tarixi qadimgi Mesopotamiya, Xitoy va Misrda yerlarni hisobga olish va baholash maqsadida olib borilgan kadastr ishlari haqidagi dastlabki ma‘lumotlar miloddan avvalgi uchinchi ming yillikka borib taqaladi. Ushbu davrda, odamlar dehqonchilik qilish maqsadida o‘z hududini, ya‘ni chegaralarini belgilashni amalga oshirganlar, bu esa kadastr shakllanishining dastlabki belgilaridan hisoblanadi. Shunisi e‘tiborga loyiqki, kadastr ishlari to‘g‘risidagi dastlabki ma‘lumotlar yer kadastr ma‘lumotlarini grafik namoyish qilish elementlarini ham o‘z ichiga oladi.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, kadastr ishlari dastlab Italiyada (eramizdan avvalgi VI asrda), va Gresiyada (584 yilda) o‘sha davrga oid maxsus davlat qonunlari asosida olib borilgan. Bunda mavjud yer maydonlari va unda joylashgan ko‘chmas mulklar ro‘yxatga olingan, hududda tarqalgan tuproq turi, ularning hosildorligi, unga ishlov berish yo‘llari aniqlangan hamda ularning tahliliga asoslangan holda tegishli soliq miqdori belgilangan.

“Kadastr” atamasi esa dastlab Fransiyada Napoleon davrida mavjud yer maydonlarini isloh qilish davrida joriy qilingan. Ba‘zi tarixchilar esa ushbu atamaning kelib chiqishini Rim hukmdori Avgust nomi bilan bog‘laydilar: eramizdan avvalgi 27 yilda u “capitium” deb nomlangan ma‘lumotlar to‘plash birligini tasdiqlaydi va “capitum registrum” ro‘yxatga olishni kiritadi. Vaqt o‘tishi bilan, bu so‘zlar birlashtirilib – “capitastrum” keyinchalik esa “catastrum” deb yuritila boshladi. Boshqa manbalarga ko‘ra, bu atama yunoncha “catastichon” so‘zidan kelib chiqqan deyiladi,

ya'ni "yozuv daftari", "varaq", "ro'yxatdan o'tish" yoki lotincha "capitastum" - soliq solinadigan obyektlar ro'yxati deyilgan. Xullas, yangi eragacha bo'lgan davrlarda kadastrda, asosan, soliq olish maqsadida mavjud yerlarning ro'yxati, maydoni va boshqa zarur ma'lumotlar o'z aksini topgan.

Shuningdek, kadastr to'g'risida bir qator manbalarda quyidagi fikrlar keltirilib o'tilgan. Kadastr - (fransuzcha kadastr - ro'yxat) – davriy yoki doimiy kuzatishlar asosida rasmiy ravishda tuziladigan, davlat miqyosidagi soliqlar, turli iqtisodiy manbalari to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar to'plami, shuningdek, yer, uy va boshqa tegishli obyektlardan foydalanish, sotish, garovga qo'yish jarayonlaridagi ma'lumotlardan iboratdir.

Yevropada feodalizm davrida ya'ni 900-1200 yillarga kelib, katta yer egalari syuzerenlar va ruhoniylar, yer va ko'chmas mulkka egalik qilishni hujjatlashtirish tarafdori bo'lganlar. Davlat xazinalarini boyitish maqsadida dastlab, 1066 yilda Angliyada, 1162 yilda Italiyada, 1269 yilda esa Fransiyada davlat yer kadastrini ishlab chiqilgan. Dastlabki, kadastr s'yomkalari va yer kadastrini hisobini olib borish usullari XVIII asr o'rtalarigacha deyarli o'zgarmagan hamda asosan, arqon, temir va yog'och o'lchagichlarda olib borilgan.

Hozirgi vaqtda, dunyo miqyosida har bir davlat o'zida kadastr muammolari va ularning amaliy yechimlari bo'yicha tadqiqotlar olib bormoqda. Bu borada ayniqsa AQSh, Germaniya, Shvesiya, Daniya, Shveysariya, Niderlandiya va Gresiya kabi davlatlarda muntazam ravishda ko'plab izlanishlar o'tkazilmoqda. Har bir mamlakatning sosial-iqtisodiy rivojlanishi ko'p maqsadlar uchun xizmat qila oladigan kadastr tizimini yaratishga olib keladi.

Bu davlatlarda kadastr tizimining shakllanishi bilan bir qatorda, ushbu tizimni yuritishda milliy va hududiy xususiyatlarga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Undagi to'planadigan ma'lumotlar kadastr maqsadlariga ko'ra o'zgartirilib borilgan.

Kadastrning shakllanishi, uni yuritishda zamonaviy texnologiyalarning qo'llanilishi uzoq tarixiy jarayonlar natijasidir. O'tmishda kadastr ishlarining yuritilishi va ularning faoliyatini tahlil qilish, hozirgi kunda bunday ishlarni yanada aniq tashkil etish imkonini yaratadi. Bu esa kelajakda qilinishi lozim bo'lgan istiqbolli rejalarni aniqlash uchun dasturiy amal bo'lib xizmat qiladi.

Davlat kadastrlari tizimida yer kadastrini alohida o'rin tutadi. Bu yerning tabiiy muhitdagi eng muhim tarkibiy qismlardan biri ekanligi bilan bog'liq.

Yer - bu mehnat jarayonini amalga oshirishda barcha ishlab chiqarish sanoati uchun zaruriy moddiy asosdir. Qishloq va o'rmon xo'jaligida, sanoatda, transportda va

insonning moddiy faoliyatining boshqa barcha sohalarida ishlab chiqarish vositasi sifatida xizmat qiladi. Bundan tashqari, yer boshqa ishlab chiqarish vositalaridan sezilarli darajada farq qiladi. U tabiatning mahsuli bo‘lib, odamlar ongidan tashqarida paydo bo‘lgan va doimo mavjud obyekt hisoblanadi. Boshqa ishlab chiqarish vositalaridan farqli ravishda, jamiyat rivojlanib borgan sari miqdor va sifat jihatidan o‘zgarib turadi, deb qarab kelingan.

MDH olimlarining davlat yer kadastrini ishlarini tashkil etish va yuritish, yer tuzish, loyihalash va yer monitoringiga oid ilmiy natijalari alohida ahamiyatga ega. Jumladan, A.V.Kolmykov (2013) tadqiqotlarida yer tuzishda qishloq xo‘jaligi yerlaridan oqilona foydalanishni tashkil etish, yerdan foydalanishni ekologizasiya qilish sharoitida almashlab ekishlarni joylashtirishni asoslash va agrosanoat majmuasida yerdan samarali foydalanish yo‘llari haqida tavsiyalar berib o‘tilgan.

Bundan tashqari, S.N.Volkov (1991) tadqiqotlarida esa indeks zanjiri usuli yordamida xo‘jalikdagi yerlarni boshqarishning milliy iqtisodiy samaradorligini aniqlash metodologiyasi, yerni samarali boshqarishga qanday erishish, yer tuzishni loyihalash va yerga egalik qilish va yerdan foydalanish hamda yer tuzishni nazariy asoslari haqida atroflicha ma‘lumotlar berilgan.

A.S.Cheshev va V.F.Valkov (2002) tadqiqotlarida esa yerdan foydalanish va yerni boshqarish masalalari ko‘rib chiqilgan.

P.F.Loyko (2012) ilmiy tadqiqotlarida Rossiya Federasiyasida zamonaviy yerdan foydalanishning ba‘zi jihatlari va yerdan foydalanishni boshqarish tizimini takomillashtirish va hududiy kadastrni rivojlantirish ishlari haqida tavsiyalar berib o‘tilgan.

Dunyoning barcha mintaqalarida bo‘lgani kabi bizning hududimizda ham yer bilan bog‘liq munosabatlar doimo muhim ahamiyatga ega masalalardan biri sifatida qarab kelingan. Chunki qadimda, o‘rta asrlar va undan keyingi davrlarda ham turli davlatlar sarhadlarimizga ko‘z tikib kelgan. Eramizdan oldingi asrlarda, qadimgi Eron, Xitoy hukmdorlari, Aleksandr Makedonskiy va keyinchalik arablar, mo‘g‘ullar, Chor Rossiyasi va boshqa davlatlar o‘z hukmronligini o‘rnatishga harakat qilganlar va bunga erishganlar ham. Lekin har qanday sharoitda ham, masalan, hududimizdagi qadimgi Kushonlar davrida, o‘rta asrlardagi Turk xoqonligi, keyinchalik hukmronlik qilgan Xorazmshohlar, Amir Temur davlati, Chor Rossiyasi bosib olgungacha bo‘lgan Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklarida yer va yerga bo‘lgan munosabatlar mavjud bo‘lgan.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi yer maydonlaridan samarali va oqilona foydalanish, ularni miqdor va sifat jihatdan tahlil qilish, yerlar hisobini yuritish va yer munosabatlarining turli darajalarida boshqaruv muammolarini hal qilish, yer monitoringiga oid maqsadli tadqiqotlar olib borilgan.

Jumladan, S.A.Avezboyev (1992) qishloq xo‘jaligi yer maydonlaridan samarali va oqilona foydalanish, ularni miqdor va sifat jihatdan tahlil qilish, yerlar hisobini yuritish va resurslarini baholashga oid maqsadli tadqiqotlar bilan shug‘ullangan [12; 41 c.].

A.K.Bazarov (2009) ilmiy tadqiqotlarida, yer munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solish hamda yerdan foydalanishni ma‘muriy boshqarishning quyi tizimlari majmuini ifodalovchi yerdan foydalanish usullari tizimlashtirilgan va yer sifati monitoringining rolini belgilagan.

A.S.Altiyev (2017) ilmiy tadqiqotlarida esa qishloq xo‘jaligini o‘ziga xos xususiyatlarini e‘tiborga olgan holda, foydalanish imkoniyatlari hududlar kesimida qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanishning hozirgi holati va samaradorlik darajasining tahlili asosida ulardan foydalanish prognozi ko‘rsatkichlari hisoblab chiqilgan hamda yerdan foydalanish tizimi samaradorligiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni e‘tiborga olgan holda, uni tartibga solish mexanizmi ishlab chiqilgan.

R.A.Turayev (2022) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa qishloq xo‘jaligi maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar monitoringini yuritish texnologiyasini takomillashtirgan va ularga o‘zgarmas kontur raqami berish mexanizmi ishlab chiqilgan hamda yer tuzish loyihalari asosida qishloq xo‘jaligi ekin turlarini joylashtirish usullarini takomillashtirgan.

Demak, yuqoridagi kadastrga berilgan ta‘riflarning deyarli barchasi ma‘lum bir fan sohasidagi obyektlar to‘g‘risida tizimli ma‘lumot to‘plash masalalariga e‘tibor qaratilgan. O‘tkazilgan tadqiqotlarda, kadastr tushunchasi xalq xo‘jaligining ma‘lum bir sohasi tarzida umumiy tadqiq qilingan.

Ushbu manbalardan ko‘rinib turibdiki, kadastr ishlarini olib borish va yuritishda eng asosiy omil bo‘lgan yerning chegarasi, atributiv ma‘lumotlar, koordinata tizimi, kartalar masshtabi, yerlarni karta va planlarda aks ettirishda relyef tushunchasi, kadastr raqami, raqamli qatlamlar kabi masalalarga yetarlicha ahamiyat qaratilmagan. Holbuki, ushbu ma‘lumotlarsiz kadastr tushunchasini ta‘riflab bo‘lmaydi. Chunonchi, Rossiyalik olim A.A.Korolev ta‘kidlaganidek, bunday axborotlarsiz kadastr ma‘lumotlar to‘plami degan tushunchadan voz kechish zarur. Bunday yondashuv ushbu tadqiqot davlat kadastrlarini yaratishning umumiy tamoyillarini aniqlash,

ularning rasmiy ta'rifini berish va ular asosida obyektlarni hisobga olish uchun kadastr tizimlariga bo'lgan talablarni ishlab chiqish kabi maqsad va vazifalarini belgilashga imkon beradi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi va iqtisodiyotda bozor munosabatlarining shakllanib borishi birinchi galda yer munosabatlarini tubdan qayta qurishni taqozo qildi. Bu esa, o'z navbatida davlat yer kadastrini yuritishni ham shakllantirish zaruriyatini tug'dirdi. Bularning barchasi 1998 yilga kelib O'zbekiston Respublikasining yangi "Yer kodeksi", "Davlat yer kadastrini to'g'risida"gi qonun va yerdan foydalanish, davlat yer kadastrini yuritish bilan bog'liq bo'lgan boshqa bir qator me'yoriy hujjatlarning qabul qilinishiga turtki bo'ldi. Respublikamizda kadastr ishlarini yuritish va uni tartibga solish O'zbekiston Respublikasining "Davlat yer kadastrini" to'g'risidagi qonuni negizida olib boriladi va ushbu Qonunining 10-moddasiga muvofiq tartibga solinadi[2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrini davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida»gi 2004 yil 15 oktyabrdagi PF-3502-son Farmoni bilan davlat yer kadastrini yuritish ishlari O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrini davlat qo'mitasining tuman (shahar) yer resurslari va davlat kadastrini bo'limlari tomonidan amalga oshirilgan [2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2020 yil 15 oktyabr kuni davlat kadastrlarini yuritishning yangi tizimini samarali tashkil etish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Yig'ilishda ta'kidlanishicha mamlakatimizda yer ajratish va davlat kadastrini sohasida bir necha o'n yillar mobaynida bir qator tizimli muammolar to'planib qolgani hych kimga sir emas.


Masalan, yer uchastkasiga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazmaslik yoki yerlarni o'zboshimchalik bilan egallab olish masalasi dolzarb muammolardan biridir. Qayd etilishicha, birgina joriy yilda 50 mingga yaqin holatda 11 ming 200 gektar yer o'zboshimchalik bilan egallangan, shundan 3200 gektarda noqonuniy uy-joy qurilgan. Bularning 99 foizi sug'oriladigan, unumdor qishloq xo'jaligi yerlari.

Bundan tashqari, yig'ilishda ta'kidlanishicha kosmosdagi sun'iy yo'ldoshlar orqali kuzatuvdan foydalanib, noqonuniy qurilmalarni tezkor aniqlash va qurilishni ilk bosqichidayoq bartaraf etish imkonini beradigan axborot tizimi yo'lga qo'yiladi. (Respublikamiz Prezidenti).

Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanida ham bu muammo yer kadastrini tizimida katta ahamiyatga ega. Chunki hisob-kitoblarga ko'ra tumanda qishloq

xo'jaligi yerlaridan noqonuniy ravishda o'zlashtirilib ketayotganligiga ko'z yumib qaralmoqda. Shuningdek, dissertasiya ishida tumandagi noqonuniy o'zlashtirilgan yer maydonlarini sun'iy yo'ldoshlar orqali onlayn monitoring qilish masalalariga ham e'tibor qaratiladi. Bu masalalarga dissertasiya ishining ikkinchi bobida alohida to'xtalib o'tiladi.


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2020 yil 7 sentyabrdagi PF-6061-son Farmoni [3] hamda «O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2020 yil 7 sentyabrdagi PQ-4819-son Qarori [6] ning ijrosini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Davlat kadastrlarini yuritish sohasini tartibga soluvchi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi 2021 yil 22 iyundagi 389-son Qarori asosida davlat yer kadastrini yuritish tartibi to'g'risida nizom ishlab chiqilgan [7]. Ushbu nizomning birinchi bobining uchinchi bandida O'zbekiston Respublikasining yer fondi davlat yer kadastrini obyektiga hisoblanadi deb belgilab berilgan hamda to'rtinchi bandida yer kadastrini ma'lumotlarini ishlab chiqish texnologiyasini doimiy ravishda takomillashtirish, tizimlashtirish, saqlash, yangilash hamda foydalanuvchilarga yer kadastrini to'g'risida ishonchli ma'lumotlar taqdim etish davlat yer kadastrining asosiy vazifalari hisoblanadi [7]. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi oldiga yer kadastriga oid quyidagi ustuvor vazifalar belgilangan va shu bilan birgalikda davlat yer kadastrini yuritishning prinsiplari quyidagilardan iboratligi belgilab berilgan (1.1.1-rasm).



1.1.1-rasm. Davlat yer kadastrini yuritishning asosiy prinsiplari

1.1.1-rasmda ko‘rsatilganidek, davlat yer kadastrini yuritishda respublikaning butun hududini qamrab olish masalalari O‘zbekiston Respublikasi “Davlat yer kadastrini to‘g‘risida”gi Qonuni asosida amalga oshiriladi[1].

Bunda asosan respublika, viloyat, tuman, kadastr zonasi, kadastr massivi, kadastr mavzesi va yer uchastkasining kadastr raqamini shakllantirish nazarda tutilgan. Bu ishlarni amalga oshirishda Bulung‘ur tumanining butun hududini qamrab olish uchun tuman va shaharning qabul qilingan kadastr raqamlaridan foydalanildi. Olib borilgan tadqiqot va hisob kitoblarga asoslanib Bulung‘ur tumani yer maydonlarini GAT dasturlaridan foydalanib kadastr raqamlarini shakllantirish takliflari muallif va kadastr agentligi xodimlari ishtirokida ishlab chiqildi (1.1.2.rasm).



1.1.2- rasm. GAT texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan hududni kadastr zonasi, massivi va mavzellariga bo‘lish rejasi

Bulung‘ur tumani kadastr raqamlarini kadastr zona, kadastr massiv va kadastr mavzellariga bo‘lib shakllantirish loyihasining taklifini ishlab chiqishda, birinchi navbatda, tuman hududining kosmik suratlardan foydalanib chegarasi aniqlab olindi.

Tuman hududini kadastr zonasiga bo‘lishda tumandagi 7 ta qishloq fuqarolar yig‘ini va 1 ta shahar chegaralarini e‘tiborga olib bo‘lish tavsiya qilindi, chunki kadastr zonalariga bo‘lishda qishloq fuqarolar yig‘inining chegaralari kadastr zonalarini tashkil qiladi desak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda kadastr zonasiga bo‘lishda koordinatlari mavjud bo‘lgan chegara burilish nuqtalari va tabiiy chegaralar bo‘ylab chegaralari aniqlandi. Natijada tumanning 75197 gektar yer maydoni 8 ta kadastr zonasiga bo‘lindi.

Hududni kadastr zonasiga bo‘lish ishlari yakunlanganidan so‘ng 8 ta kadastr zonasining har bir hududi kadastr massivlariga bo‘lindi. Hududni kadastr massiviga bo‘lishda tumandagi kadastr zonalar ichidagi 17 ta massivlarning chegaralari belgilandi va kadastr massivlariga bo‘lindi.

Shu tariqa, massiv hududi kadastr mavzellariga bo‘lindi. Kadastr mavzellarining chegaralarini belgilashda bino va inshootlarning qizil chiziqlari, tabiiy chegaralar hisobga olingan holda, tuman hududi 700 ta kadastr mavzesiga bo‘linib, kadastr mavzellarining kadastr raqami to‘liq shakllantirildi. Kadastr mavzellarining kadastr raqami shakllantirilib bo‘lgandan so‘ng davlat yer va bino inshootlarining kadastr raqamlari shakllantirilishi ta’kidlab o‘tildi.

«O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 oktyabrdagi «Davlat Soliq Qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-405-sonli Qarorida 2023-2026 yillarda davlat kadastrlari, geodeziya va kartografiya sohasini rivojlantirish bo‘yicha yo‘l xaritasi ishlab chiqilgan [8]. Ushbu yo‘l xaritasining 5 bandida Kadastr agentligiga davlat koordinatalar tizimidan (SK-42) butunjahon koordinatalar tizimiga (WGS-84) o‘tish parametrlarini ishlab chiqishligi belgilab berilgan [8].

Bu ishlarni amalga oshirishda birinchi navbatda, mahalliy koordinatalar tizimi yo‘lga qo‘yilmagan aholi yashash joylarini to‘liq mahalliy koordinatalar tizimi bilan ta’minlash zarur. Buning uchun mahalliy koordinatalar tizimi mavjud bo‘lmagan aholi punktlarini belgilash, mahalliy koordinatalar tizimi o‘rnatiladigan aholi punktlariga mavjud davlat geodeziya tarmog‘idagi koordinatalaridan foydalanib, mahalliy koordinatalar tizimlarini o‘rnatish ishlarini bajarish zarur. O‘rnatilgan mahalliy va davlat koordinatalar tizimlarini transformasiya qilish orqali butun jahon koordinatalar tizimiga (WGS-84) o‘tishimiz mumkin. Jahon koordinatalari orqali yer kadastriga doir ma’lumotlarning uzluksizligi, ishonchliligi va tejamliligi ta’minlanadi.

Olib borilgan tadqiqotlar davlat yer kadastr ishlarini tashkil etish va yuritishda GAT dasturlarini qo‘llash orqali ma’lumotlar bazasini yaratish, yangi elektron raqamli kartalarni tuzish hamda yer kadastr kartalarini yaratish usullarini ishlab chiqish va belgilangan prinsiplar asosida yuritish zaruratini ko‘rsatdi.

XULOSA

1. Olib borilgan maqsadli tadqiqotlar natijasidan ma'lum bo'ldiki, yerdan foydalanish va yer kadastrini yuritish ishlarini prinsiplar asosida olib borish, yer bilan bog'liq munosabatlarni tizimli tashkil qilish va yer maydonlarining sifat va miqdor hisobini to'g'ri olib borish sohadagi muammolar yechimini topishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurakhmonovich, A. G., Rakhmanovich, Y. Z., & Abdiazizovich, R. B. (2021). FORMATION OF THEMATIC STRUCTURES OF SMALL AREA FACILITIES DEVELOPING DANGEROUS HYDROMETEOROLOGICAL EVENTS ZONES OF HIGH NATURAL RISK. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 2(11), 150-154.

2. Haydarovich, B. M., Yarkulov, Z. R., & Mashrab, P. (2023). Main Characteristics of Geoinformation Technologies and Modern Gis. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(2), 194-200.

3. Abdullayevich, R. U. B. (2022, June). MODDIY MADANIY MEROS OBYEKTULARI DAVLAT KADASTRI BO'YICHA TEMATIK QATLAMLARINING ATRIBUTIV MA'LUMOTLARINI YARATISH. In " *ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM* (pp. 8-12).

4. Abdullayevich, R. U. B. (2022, June). CREATION OF ATTRIBUTIVE DATA OF THEMATIC STRUCTURES OF THE STATE CADASTRE OF MATERIAL CULTURAL HERITAGE OBJECTS. In " *ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM* (pp. 1-5).

5. Раимов, У. А., & Тухтаев, Ш. Х. (2021, October). Геодезический Мониторинг Деформаций Ансамбля Регистан. In " *ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM* (pp. 96-100).

6. Raximov, U. A., Tojidinova, F. M., & Po'latov, S. S. (2023). ISSUES OF FORMATION OF STATE CADASTRE DATA OF HIGHWAYS USING GEOGRAPHIC INFORMATION SYSTEM. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(7), 156-160.

7. Raximov, U. A., Ortiqov, J. U., Ilmurodova, L. A., & Tadjidinova, F. M. (2023). SAMARQAND VILOYATINI MADANIY ME'ROS OBYEKTULARI XARITALARINI GAT TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB YARATISH MASALALARI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(8), 255-257.

8. Рахимов, У. А., & Хамдамов, М. С. (2023). ГЕОПОРТАЛ СИСТЕМЫ ГОСУДАРСТВЕННОГО КАДАСТРА И ИХ ИНТЕГРАЦИЯ МЕЖДУ АГЕНТСТВАМИ. *Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects*, 32-36.

9. Raximov, U. A., Ortiqov, J. U., & O'rozaliyev, B. B. (2023). Existing Class I Height in the Area of Samarkand Current Status of Points. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, 2(3), 205-208.

10. Ibragimov, L. T., Raximov, U. A., Yarkulov, Z. R., & Ortiqov, J. U. (2022). Improvement of the State Water Cadastre's Management System. *INTERNATIONAL JOURNAL ON HUMAN COMPUTING STUDIES*.

11. Рахимов, У. А., Тожидинова, Ф. М., & Рахимов, Б. А. (2023). СПУТНИКОВЫЙ МОНИТОРИНГ ДЛЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ КАДАСТРОВЫХ РАБОТ. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 3(28), 97-104.

12. Gulmurodov, F. E., Raximov, U. A., Umirzakov, Z. T., & Jo'rayev, S. X. (2023). O 'ZBEKISTONDA MADANIY MEROS OBYEKTLARINI SAQLASH VA QAYTA TIKLASHDA 3D TECHNOLOGIYASINING ANAMIYATI. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 6(4), 500-506.

13. Гулмуродов, Ф. Э., & Рахимов, У. А. (2023). РАЗВИТИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ. *Scientific Impulse*, 1(9), 1190-1195.

14. Тожидинова, Ф. М., Бобокалонов, М. Х., & Рахимов, У. А. (2023). ПРИМЕНЕНИЕ ДАННЫХ ДИСТАНЦИОННОГО ЗОНДИРОВАНИЕ ЗЕМЛИ В ЗЕМЛЕПОЛЬЗОВАНИЕ И УПРАВЛЕНИИ РАБОТ В КАРТОГРАФИИ. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 3(29), 427-436.

15. Рахимов, У. А. (2023). МАДАНИЙ МЕРОС ОБЪЕКТЛАРИНИНГ ЭЛЕКТРОН СХЕМАТИК ХАРИТАЛАРИ ВА АТРИБУТЛАРИНИ ЯРАТИШ МЕТОДИКАСИ. *ARXITEKTURA, MUHANDISLIK VA ZAMONAVIY TECHNOLOGIYALAR JURNALI*, 2(5), 132-136.

16. Ниязов, В. Р., Рахимов, У. А., & Хайруллаева, М. (2023). ПРОЕКТИРОВАНИЕ ГЕОДЕЗИЧЕСКОЙ СЕТИ СГУЩЕНИЯ В ОКРЕСТНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ОБЪЕКТОВ. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 6(5), 627-634.

17. Ниязов, В. Р., Рахимов, У. А., & Хайруллаева, М. (2023). «МУРУНТОВ» ОЧИҚ КАРЬЕРИ АТРОФИДАГИ ГЕОДЕЗИК ТАРМОҚНИ ТАДҚИҚ ҚИЛИШ. *Scientific Impulse*, 1(10), 1166-1173.

18. Рахимов, У. А., Яркулов, З. Р., ўғли Ортиқов, Ж. У., & ўғли Нурфайзиев, Э. З. (2023). САМАРҚАНД ШАХРИДАГИ МОДДИЙ МАДАНИЙ МЕРОС ОБЪЕКТЛАРИНИ ЖОЙЛАШГАН ЎРНИНИ ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИБ АНИҚЛАШ. *RESEARCH AND EDUCATION*, 2(10), 117-125.

19. Jurakulov Doniyor Ochilovich, & Yarkulov Zokir Rahmanovich. (2023). Aholi punkti hududidagi yer resurslarining hisobi(balansi)ni yuritishni raqamlashtirish. *RESEARCH AND EDUCATION*, 2(4), 4–18. [HTTPS://DOI.ORG/10.5281/ZENODO.7811591](https://doi.org/10.5281/ZENODO.7811591).

20. Allanazarov, O., & Umarov, N. (2020). Obnovleniye karty i planov kadastra na osnove distansionnykh zondovnykh materialov. *Obuyestvo i innovasii*, 1(2/S), 449-454.

21. Eshmurodovich, G. F., & Umarov, N. S. (2023). THEORETICAL BASIS OF CREATION OF LARGE-SCALE CADASTRAL MAPS. *Academia Science Repository*, 4(05), 194-198.

22. Eshmurodovich, G. F., & Umarov, N. S. (2023). USE OF MODERN GEOGRAPHIC INFORMATION SYSTEMS IN THE REGISTRATION OF AGRICULTURAL LAND IN BULUNGUR DISTRICT, SAMARKAND REGION. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, (2), 267-273.
23. Umarov, N. S., Abdullayevich, R. U. B., & Tashpolat, I. L. (2023). TECHNOLOGY FOR CREATING DIGITAL LAND CADASTRAL MAPS USED FOR CADASTRAL PURPOSES. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, (2), 274-284.
24. Umarov, N. S., & Tursunov, B. A. M. (2023). YER KADASTRINI YURITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. *RESEARCH AND EDUCATION*, 2(5), 114-119.
25. Jumanov, A., Khudayberganova, M., Mirazimova, G., Radjabov, Y., Umarov, N., & Samatova, G. (2023). Monitoring dynamics of green spaces in Surkhandarya region based on remote sensing data of climate change. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 401, p. 02012). EDP Sciences.
26. Abdurakhmonov, S., Prenov, S., Umarov, N., Gulmurodov, F., & Niyozov, Q. (2023). Application of GIS technologies in the improvement of geodetic and cartographic works in land cadastre. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 386, p. 05012). EDP Sciences.
27. Umarov, N. S. (2020). Land use and land cadaster in the community. In *NAUKA I OBRAZOVANIYE: SOXRANYaYa PROShLOYe, SOZDAYoM BUDULIQYeYe* (pp. 235-237).
28. Umarov, N. S. (2021). Methodology of monitoring agricultural land of Bulungur district and creation of electronic digital cards for cadastre objectives. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 1582-1590.
29. Gulmurodov, F. E., Umarov, N. S., & Khamidova, P. J. (2021). 3D models development of tourism facilities. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(12), 572-578.
30. Shermatovich, U. N., & Ramonovich, Y. Z. (2021). The use of GIS technology in recording and creating a database of agricultural land in bulungur district. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 2(11), 30-39.
31. Eshmurodovich, G. F., Umarov, N. S., & Ahmed-kizi, I. L. (2023). METHODS OF UPDATING LAND CADASTRAL MAPS AND PLANS BASED ON REMOTE SENSING MATERIALS. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, (2), 250-256.
32. Shermatovich, U. N., & Axmed-kizi, I. L. (2023). QISHLOQ XO‘JALIGI YERLARINING MIQDOR VA SIFAT KO‘RSATKICHLARI TAHLILI. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, (2), 63-68.